



---

## LINGUISTICAL SIGNIFICANCE OF PROVERBS ON THE TOPIC “MOTHERLAND”

Mahmudova Nargiza Ravshanovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Senior Lecturer at the  
Department of English Philology, Fergana State University

E-mail: nr.mahmudova@pf.fdu.uz

Khusainova Shahlo Dilmurodjon qizi

2nd Year Master's Student

Fergana State University, Linguistics

E-mail: shahloibragimova70@gmail.com

---

### Abstract

This article analyzes the linguistic and cultural content of the concept “Motherland” in Uzbek folk proverbs. Proverbs are studied as an important paremiological unit reflecting the historical memory, national values, and social thinking of the people. The study highlights the semantic, pragmatic, and cultural characteristics of proverbs on the topic “Motherland,” and analyzes the ways in which love for the motherland, loyalty, national unity, and spiritual values are expressed. Also, the role of proverbs in the formation of the national worldview and national mentality is revealed on the basis of a linguocultural approach. The results of the study show that the concept of "Homeland" occupies an important place in the national-cultural landscape of the Uzbek language and is manifested as a spiritual heritage transmitted from generation to generation through proverbs.

**Keywords:** Homeland, linguoculture, proverb, paremiology, national value, folk oral creativity, national mentality, semantics, pragmatics, cultural concept, native land, patriotism, language and culture, ethnoculture, folk thinking, spiritual heritage, linguistic analysis, national consciousness, folklore, system of values.



---

## INTRODUCTION

### “VATAN” MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING LINGVOMADANIY AHAMIYATI

Maxmudova Nargiza Ravshanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Farg'ona  
davlat universiteti ingliz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi.

E-mail: nr.mahmudova@pf.fdu.uz

Xusainova Shahlo Dilmurodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika  
ingliz tili yo'nalishi 2-kurs magistranti.

E-mail: shahloibragimova70@gmail.com

#### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida “Vatan” konseptining lingvomadaniy mazmuni tahlil qilinadi. Maqollar xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy tafakkurini aks ettiruvchi muhim paremiologik birlik sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda “Vatan” mavzusidagi maqollarning semantik, pragmatik hamda madaniy xususiyatlari yoritilib, ularda ona yurtga muhabbat, sadoqat, milliy birlik va ma'naviy qadriyatlarning ifodalanish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqollarning xalq dunyoqarashi va milliy mentalitetni shakllantirishdagi o'rnini lingvomadaniy yondashuv asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari “Vatan” konsepti o'zbek tilining milliy-madaniy manzarasida muhim o'rin tutishini hamda maqollar orqali avloddan avlodga uzatiladigan ma'naviy meros sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Vatan, lingvomadaniyat, maqol, paremiologiya, milliy qadriyat, xalq og'zaki ijodi, milliy mentalitet, semantika, pragmatika, madaniy konsept, ona yurt, vatanparvarlik, til va madaniyat, etnomadaniyat, xalq tafakkuri, ma'naviy meros, lingvistik tahlil, milliy ong, folklor, qadriyatlar tizimi.



---

## **Kirish**

“Vatan” haqidagi maqollar – bu bir vaqtda bir necha funksiyalarni bajara oladigan noyob madaniy matnlardir: ular tilning shakllarini rivojlantiradi, qadriyatlarni o‘tmishdan hozirga yetkazib beradi, dunyoqarashni va milliy identitetni shakllantirishga yordam beradi. Ularning ahamiyati oddiy folklor kontekstidan farqli o‘laroq, ancha kengayib boradi: ular kognitiv modellar, hissiy ramzlar va ijtimoiy me’yorlarga aylanadi.

## **Metodologiya**

Maqollar ona zaminga asoslangan madaniy tushunchalarni yoritadi va bu bilan kognitiv funksiyani bajaradi. Ular xalqning ongi ichida yer, uy, oila va birlik haqidagi tasavvurlarni mustahkamlaydi. Rus olimi V.N. Teliya: «Maqollar – bu xalq bilimining jamlangan ifodasi bo‘lib, unda til madaniy kodlarning saqlovchisi vazifasini bajaradi»<sup>1</sup>. Ushbu fikr maqollarni oddiy iboralar yoki xalq folklorining namunasi sifatida emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, qarashlari va qadriyatlarini aks ettiruvchi ramziy matnlar sifatida ko‘rsatadi. Maqollar nafaqat estetik jihatdan jozibador, balki kognitiv va ta’lim beruvchi ahamiyatga ham ega. Ular jamiyatning madaniy xotirasini saqlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Maqollarning emotsional va ijtimoiy roli ham juda katta. Ular aytilish tarzidagi oddiylik bilan kuchli hissiyotlarni ifodalaydi va ko‘p hollarda xalq orasida tarbiyalovchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu uslublar orqali xalqimiz qadriyatlarini mutlaqo yangi avlodlarga yetkazish imkoniga egamiz.

“Vatan” haqidagi maqollar xalqning asrlar davomida yig‘ilgan tajribasi, qadriyatlari va fikrlarini qisqa va aniq shaklda aks ettiruvchi o‘ziga xos “ma’no kapsulalari”dir. Ular nafaqat yer, uy, oila va birlikni kuchaytiradi, balki bu qadriyatlarni kelgusi avlodlarga yetkazib berib, xulq-atvorning kognitiv shakllanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Misol uchun, o‘zbek maqoli “Ona yurt – oltin beshik”

---

<sup>1</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 234



Vatanni hayot manbai va insonning yo‘l boshlovchisi sifatida ta’riflaydi. Bu yerda “beshik” so‘zining metaforik ma’nosi g‘amxo‘rlik, xavfsizlik va ruhiy kelib chiqishni anglatadi.

Ingliz an’analarida

“Home, sweet home”

maqoli Vatanni uy qulayligi va hissiy bog‘liqlik orqali tasvirlaydi.

Bu tarzda, vatan haqidagi maqollar inson fikrini yo‘naltiruvchi kognitiv xaritalar vazifasini o‘taydi. Ular Vatanni faqatgina geografik joy sifatida emas, balki shaxsiy va jamoaviy qadriyatlarining birlashuv nuqtasi sifatida ko‘rishga o‘rgatadi.

Emotsional rol insonga o‘z hissiyotlarini boshqalar bilan qanday baham ko‘rishni va ijtimoiy vaziyatlarda hissiyotlaridan foydalanishni belgilaydi. Bu rol odamning biror inson yoki guruh bilan aloqa o‘rnatishidagi qobiliyatini aks ettiradi, shuningdek, u boshqa odamlarga yordam qilish orqali ham ulanishga imkon yaratadi. Hissiy bog‘lanishlar kuchli bo‘ladi va bu esa jamiyatda bir-birimizni tushunishga zamin tayyorlaydi. Misol uchun, ota-onalik emotsional rolda farzandlariga mehr-muhabbat ko‘rsatish va korinishida rostgo‘y sifatlarni ishlab chiqarda, bu nafaqat oilaviy muhitda do‘stlik hosil qiladi balki bolalarning psixologik rivojlanishini ham ta’minlaydi.

Maqollar insonning vatan bilan hissiy bog‘liqligini shakllantiradi, unda sog‘inch, muhabbat va mehr tuyg‘ularini uyg‘otadi. Rus olimi Yu.N. Karaulov “Maqollar va matallar – xalqning qadriyat yo‘nalishlarini mustahkamlovchi, emotsional jihatdan boy matnlardir”<sup>2</sup> deb ta’kidlaydi. Maqollarning emotsional boyligi ularni dunyoqarashni shakllantirishda ayniqsa ta’sirchan qiladi. Ular faqat aqlga emas, balki his-tuyg‘ularga ham ta’sir etib, qadriyatlarni obrazlilik va hissiy aks-sado orqali mustahkamlaydi.

Masalan,

«Yaxshi so‘z mushukka ham yoqadi»

maqoli ham mehribonlikning ahamiyatini tasdiqlaydi ham hissiy rozilik uyg‘otadi va kundalik hayotda mehribonlikni qadrlash odatini shakllantiradi. Shu bilan birga,

<sup>2</sup> Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – Москва: Наука, 1987. – 264 с. – С. 112.



---

«Nima eksang, shuni o‘rasan»

maqoli adolat va mas’uliyat g‘oyasini mustahkamlaydi, insonda qonuniyat va axloqiy tartib tuyg‘usiga murojaat qiladi.

### **Natijalar**

Shunday qilib, maqollarning emotsional kuchi ularni o‘ziga xos “qadriyat markerlari”ga aylantiradi chunki ular nafaqat me’yorlarni uzatadi, balki ularni ichki kechinmaga aylantiradi. Xalq donoligi bu matnlar orqali insonning hissiy tajribasiga singib, ong va xulq-atvorida yanada chuqurroq ildiz otadi.

Rossiyalik tilshunis M.Baxtin ta’kidlaydiki: “xalq og‘zaki ijodi ifadalarining shakllari – madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotdir va bu jarayonda his-tuyg‘ular ma’noning bir qismiga aylandi”<sup>3</sup>. Xalq og‘zaki ijodi – maqol va matallar – nafaqat tilning estetik jihatlaridan biri, balki turli madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni aks ettiruvchi muhim vositadir. Ular orqali his-tuyg‘ular ma’no bilan birlashib, xalqning dunyoqarashi va qadriyatlarini yanada yaxshiroq tushunish mumkin.

Ch.Lakoff fikricha “Maqollardagi metaforalar hissiy idrok modellarini shakllantiradi”<sup>4</sup>. Lakoffning nazariyasi shuni bildiradiki, metafora inson o‘ylarida va his-tuyg‘ularida muhim rol o‘ynaydi. Maqollarda foydalanilgan ramziy obrazlar xalqning qarashlarini ochib beradi va hissiy tajribalarni shakllantiradi. Masalan, o‘zbek xalqida keng tarqalgan maqollardan biri:

«El bilan borsa, el bo‘lar»

Bu iborada “el” sozi jamiyatni, birlikni va ijtimoiy yordamni ifodalaydi. Ushbu maqol insonni yolg‘iz qolishdan ko‘ra jamoa ichida bo‘lishga undaydi va shu orqali kuch topishga tavsiya qiladi. Bu metafora hissiy birlik va hamkorlik hisini ko‘rsatib beradi. Shu tariqa, maqollardagi metaforalar faqatgina fikrlarni emas, balki tuyg‘ularni ham rivojlantiradi va qadriyatlarni yanada chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Ular xalq donoligining kuchini oshiradi va madaniy xotirani avloddan-avlodga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy rol esa insonlarning jamiyat ichida qanday funktsiyalarni bajarishini aniqlaydi. Ushbu rollar odatda ijtimoiy kontekstga asoslangan bo‘ladi; masalan:

---

<sup>3</sup> Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Искусство, 1979. – С. 102.

<sup>4</sup> Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 45.



ishchilar tomonidan bajarilgan kasbiy vazifalar yoki oiladagi majburiyatlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Har bir ijtimoiy rol aniq burchlarni keltirib chiqaradi; buning natijasida odamlarning qarashlari va nazariyalari shakllanadi. Shunday qilib, interaktsiya jarayonida har kimning o'ziga xos roli paydo bo'ladi – masalan, talaba vatanparvarligi timsoli sifatida yosh avlodni yetishtirish sa'y-harakat chiqaradi.

Amerikalik tilshunos E.Sepir: "Til – madaniy identitetni shakllantiruvchi ramzlar tizimidir"<sup>5</sup> deydi. Til aslida aloqa vositasi sifatida xizmat qilgandan tashqari, xalqning madaniy o'zligini belgilovchi muhim faktor hisoblanadi. Ommaviy xotira, qadriyatlar, dunyoqarash va haqiqatni tushunish usullari xalqimizda birlashgan holda ifodalanadi. Biz ona tilimizda gapirganda, shunchaki ma'lumot bermaymiz, balki madaniy kodlarni qayta ishlab, muhitni idrok etish shaklimizni rivojlantiramiz. Shu bois tilning yo'qolishi ko'pincha madaniy merosning bir qismi sifatida qaraladi. Tilni saqlash va rivojlantirish esa xalqning o'ziga xosligini saqlab qolish uchun muhimdir.

### **Adabiyotlar:**

1. Rahmatullayev Sh. \*O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati\*. — Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Mirzayev T., Musoqulov A. \*O'zbek xalq maqollari\*. — Toshkent: Sharq, 2005.
3. Maslova V.A. \*Lingvokulturologiya\*. — Moskva: Akademiya, 2001.
4. Teliya V.N. \*Russkaya frazeologiya: semantik, pragmatik va lingvokulturologik aspektlar\*. — Moskva: Yazyki russkoy kulturi, 1996.
5. Safarova N. \*Lingvomadaniyatshunoslik asoslari\*. — Toshkent: Fan, 2010.
6. Vorobyov V.V. \*Lingvokulturologiya: nazariya va metodlar\*. — Moskva: RUDN, 1997.
7. Yo'ldoshev B. \*Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologiya\*. — Toshkent: Fan, 1993.

<sup>5</sup> Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1921. – P. 207.



*Modern American Journal of Linguistics,  
Education, and Pedagogy*

ISSN (E): 3067-7874

Volume 2, Issue 5, May, 2026

Website: [usajournals.org](http://usajournals.org)

*This work is Licensed under CC BY 4.0 a Creative Commons Attribution  
4.0 International License.*

- 
8. Karasik V.I. \*Yazykovoy krug: shaxs, konseptlar, diskurs\*. — Volgograd: Peremena, 2002.
  9. Mahmudov N. \*Til va madaniyat\*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2013.
  10. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 3-jild. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.